SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

Payariq sh, Samarqand ko‘chasi, 52-uy.

2021 - yil 10 - noyabr 107-7-100-Q/21 Payariq tuman hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 39-moddasi (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son), hamda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni 43-moddasi (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hududida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalarda ish o‘rinlarini eng kam miqdorini belgilash yuzasidan takliflarni inobatga olib;

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilishi lozim bo‘lgan tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qayd qilingan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar quyidagi ijtimoiy

muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yishni ta’minlasin.

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 28.5 foiz (150 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 46.6 foiz (239 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 14.1 foiz (74 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (15 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1.0 foiz (5 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar 1,0 foiz (5 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 2.2 foiz (20 kishi).

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 1.1 foiz (6 kishi).

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun 2022-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarini ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan

tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga (keyingi o‘rinlarda Nizom deb ataladi) muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda zaxiralab qo‘yilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya, gigiena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

6. Ushbu qarorda belgilab qo‘yilgan toifalarga mansub shaxslarni ortig‘i bilan qabul qilgan korxona, tashkilot va muassasalarga tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirining (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan (31.05.2019-y. №3163) 2019-yilning 10-mayidagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga asosan subsidiya ajratilishini ta’minlasin.

7. Nizom talabiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdoridan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu o‘rinlarni tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini Markaz bilan tuzilgan shartnoma asosida Aholi bandligiga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

8. Markaz direktori (A.Xamidov) besh kun muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Tuman hokimining 2020-yil 5-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2021-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 1002-Q-sonli qarori 2021-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

l0. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimnining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Ollanov zimmasiga yuklansin.

Туман ҳокими **Ergashev Z. A.**

Пайариқ туман ҳокимининг
2021 йил 10 ноябрдаги
107-7-100-Q/21-сон қарорига
1-илова

2022-yil Payariq tumanida Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlari to'g'risida MA'LUMOT

№	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o`rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro`yhati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo`yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo`yish taklif etilayotgan ish o`rinlari soni	shu jumladan:							
				O`n to`rt yoshga to`lmagan bolalari, nogironligi bo`lgan bolalari bor yolg`iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko`p bolali oilalarning ota-onalari uchun band qilingan ish o`rinlari soni	Umumiy o`rta va o`rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, «Mehriboнlik»uylarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun
1	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazi	53	5	2	2	1					
2	Samarqand cotton cluster MCHJ	130	13	2	5	2	2			2	
3	Samarqand viloyat AGROKIMYO HIMOYA AJ Payariq tuman UK	58	6	1	2	1		1		1	
4	Payariq tuman irrigatsiya bo`limi	42	4	2	1	1					
5	Invest farm trade MChJ	81	8	2	2	1	1		1	1	
6	Paradise white gold texstile MCHJ	108	11	1	2	1	3	1	1	2	
7	Payariq tuman madaniyat va aholi dam olish markazi	50	5	2	2	1					
8	Payariq tuman veterinariya bo'limi	60	6	2	2	2					
9	Payariq tuman maktabgacha ta`lim bo`limi	40	4	1	2	1					
10	Payariq tuman obodonlashtirish departamenti	185	18	3	6	1	2	1	2	1	2
11	Payariq tumani SEO markazi	127	13	2	4	2	1		1	1	2
12	Payariq tuman tibbiyot birlashmasi	1459	146	49	73	12	3	1	3	3	2
13	4-maktab	50	5	1	3	1					
14	5-maktab	48	5	2	2	1					
15	7-maktab	59	6	1	3	1				1	
16	8-maktab	50	5	1	3	1					
17	16-maktab	49	5	1	3	1					
18	21-maktab	51	5	1	3	1					
19	22-maktab	53	5	1	3	1					
20	23-maktab	50	5	1	3	1					
21	27-maktab	49	5	1	2	1				1	
22	28-maktab	48	5	1	3	1					
23	29-maktab	23	2	1	1						
24	32-maktab	30	3	1	1	1					
25	33-maktab	39	4	1	2	1					
26	34-maktab	49	5	1	2	2					
27	36-maktab	50	5	1	3	1					
28	37-maktab	39	4	1	2	1					
29	38-maktab	59	6	1	3	2					
30	40-maktab	29	3	1	1	1					
31	41-maktab	51	5	1	2	1				1	
32	42-maktab	50	5	1	2	1				1	
33	43-maktab	31	5	2	2	1					
34	45-maktab	39	4	1	2	1					
35	46-maktab	31	3	1	2						
36	47-maktab	51	5	2	3						
37	48-maktab	31	3	1	2						
38	49-maktab	31	3	1	2						
39	50-maktab	51	5	1	3	1					
40	51-maktab	50	5	1	2	2					
41	52-maktab	41	3	1	1	1					
42	54-maktab	30	3	1	1	1					
43	55-maktab	29	3	1	1	1					
44	60-maktab	31	3	1	1	1					
45	63-maktab	41	4	1	2	1					
46	64-maktab	36	3	1	2						
47	66-maktab	38	4	1	2			1			
48	67-maktab	54	5	2	2	1					
49	69-maktab	50	5	1	2	2					
50	70-maktab	41	4	1	2					1	
51	73-maktab	49	5	1	2	1				1	
52	76-maktab	60	6	1	3	1				1	
53	86-maktab	51	5	1	2	1	1				
54	89-maktab	49	5	1	2	2					
55	90-maktab	50	5	1	2	1				1	
56	93-maktab	40	4	1	2	1					
57	95-maktab	39	4	1	2	1					
58	97-maktab	40	4	1	2	1					
59	98-maktab	41	4	1	2	1					
60	99-maktab	50	5	1	2	1				1	
61	1-son MTM	32	3	1	2						
62	2-son MTM	38	4	1	2		1				
63	5-son MTM	22	2	1	1						
64	7-son MTM	23	2	1	1						
65	8-son MTM	28	2	1	1						
66	11-son MTM	26	2	1	1						
67	12-son MTM	23	2	1	1						
68	13-son MTM	29	3	1	2						
69	14-son MTM	21	2	1	1						
70	15-son MTM	20	2	1	1						
71	16-son MTM	29	3	1	1	1					
72	19-son MTM	22	2	1	1						
73	20-son MTM	26	2	1	1						
74	22-son MTM	21	2	1	1						
75	23-son MTM	29	3	1	1	1					
76	25-son MTM	21	2	1	1						
77	26-son MTM	50	5	1	3	1					
78	34-son MTM	34	3	1	1	1					
79	29-son MTM	21	2	1	1						
80	31-son MTM	21	2	1	1						
81	32-son MTM	21	2	1	1						
82	35-son MTM	20	2	1	1						
83	37-son MTM	20	2	1	1						
84	39-son MTM	22	2	1	1						
85	40-son MTM	21	2	1	1						
86	41-son MTM	20	2	1	1						
87	42-son MTM	21	2	1	1						
88	44-son MTM	20	2	1	1						
89	45-son MTM	21	2	1	1						
	Jami	**5216**	**517**	**150**	**239**	**75**	**14**	**5**	**8**	**20**	6